



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016



DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDIT STANDARTLARINI XALQARO ICHKI AUDIT STANDARTLARI TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich

*TDIU "Byudjet hisobi va g'aznachilik" kafedrası professorı,
Toshkent, O'zbekiston,*

Email: a.ostonokulov@tsue.uz ,

ORCID:0000-0003-2792-3174

Xamidova Zarifa Urol qizi,

*TDIU "Byudjet hisobi va g'aznachilik" kafedrası dotsenti,
Toshkent, O'zbekiston,*

z.xamidova@tsue.uz,

ORCID:0000 0002 9785 4170,

IMPROVEMENT OF PUBLIC SECTOR INTERNAL AUDIT STANDARDS IN LINE WITH INTERNATIONAL INTERNAL AUDIT STANDARDS

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich

Professor of the Department of "Budget Accounting and Treasury",

TSUE, Tashkent, Uzbekistan,

Email: a.ostonokulov@tsue.uz ,

ORCID:0000-0003-2792-3174

Khamidova Zarifa Urol qizi,

Associate Professor of the Department of "Budget Accounting and Treasury"

TSUE, Tashkent, Uzbekistan.

z.xamidova@tsue.uz,

ORCID:0000-0002-9785-4170

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat organlari va tashkilotlari ichki audit xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi milliy standartlar ichki auditning xalqaro standartlari (GIAS 2024) bilan konseptual, metodologik va amaliy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaldagi milliy standartlar byudjet intizomi, qonuniylik, moliyaviy nazorat va ichki audit tadbirlarini hujjatlashtirish uchun zarur asosni yaratgan bo'lsa-da, zamonaviy xalqaro standartlar ichki auditni faqat xato va

kamchiliklarni aniqlovchi nazorat mexanizmi sifatida emas, balki tashkilot qiymatini yaratish, himoya qilish va saqlashga xizmat qiluvchi mustaqil kafolat, maslahat va prognoz funksiyasi sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada ichki auditning maqsadi, mustaqilligi, axloq va professionalizm, riskka asoslangan rejalashtirish, audit topshiriqlarini bajarish, dalillarni baholash, sifatni ta'minlash, raqamli va masofaviy audit, natijadorlik indikatorlarini baholash hamda tavsiyalar monitoringi bo'yicha

metodologik takomillashtirish
yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ichki audit, davlat sektori, riskka asoslangan rejalashtirish, audit metodologiyasi, sifati baholash, professional jasurlik, dalillar, tahliliy amallar, byudjet intizomi.

Abstract. This article provides a conceptual, methodological and practical comparative analysis of the national standards regulating the activities of internal audit services of state bodies and organizations with the international standards of internal audit (GIAS 2024). The main idea of the study is that although the current national standards have created the necessary basis for documenting budgetary discipline, legality, financial control and internal audit activities, modern international standards interpret internal audit not only as a control mechanism that identifies errors and shortcomings, but also as an independent assurance, advisory and forecasting function that serves to create, protect and preserve the value of the organization. From this point of view, the article develops directions for methodological improvement in the areas of the purpose, independence, ethics and professionalism of internal audit, risk-based planning, execution of audit assignments, evidence assessment, quality assurance, digital and remote audit, assessment of performance indicators and monitoring of recommendations.

Keywords: internal audit, public sector, risk-based planning, audit methodology, quality assessment, professional courage, evidence, analytical procedures, budgetary discipline.

Kirish. Davlat sektorida ichki audit so'nggi yillarda byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish, byudjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy boshqaruv va ichki nazorat tizimlari samaradorligini oshirishning muhim vositasiga aylandi. Biroq ichki auditning real qiymati faqat moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqlash bilan chegaralanmaydi. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, ichki audit tashkilotning maqsadlariga erishish ehtimolini oshiradigan, risklarni oldindan ko'ra oladigan, rahbariyat qarorlarini asoslaydigan hamda resurslardan foydalanish natijadorligini baholaydigan professional boshqaruv funksiyasidir.

O'zbekiston ichki audit milliy standartlari davlat organlari va tashkilotlari ichki audit xizmatlari faoliyatining sifat ko'rsatkichlari hamda audit tadbirlarini o'tkazish standartlarini belgilaydi. Mazkur standartlar davlat sektorining ehtiyojlariga mos ravishda byudjet intizomi, qonuniylik, ichki nazorat va moliyaviy boshqaruv jarayonlariga urg'u beradi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi ikki omil bilan belgilanadi. Birinchidan, davlat sektorida ichki audit oldiga qo'yilayotgan vazifalar murakkablashmoqda: maqsadli indikatorlar samaradorligini baholash, raqamli platformalar orqali risk signallarini tahlil qilish, davlat xaridlari, ish haqi, manfaatlar to'qnashuvi, budjetdan tashqari mablag'lar va natijadorlik ko'rsatkichlarini kompleks baholash zarurati kuchaymoqda. Ikkinchidan, xalqaro standartlar ichki auditdan nafaqat qonunbuzilishlarni aniqlash, balki tashkilotning strategik risklari, boshqaruv madaniyati, axborot xavfsizligi, ma'lumotlar sifati va qaror qabul qilish mexanizmlarini baholashni talab qilmoqda.

2024-yil yakunida 17 ta obyektida ichki audit tadbirlari o'tkazilib, 13 409,9 mln so'mlik xato va kamchiliklar aniqlangan hamda 10 380,0 mln so'mi bartaraf etilgan. 2025-yilda 26 ta obyektida audit tadbirlari o'tkazilib, 14 015,3 mln so'mlik xato va kamchiliklar aniqlangan, 12 108,5 mln so'mi bartaraf qilingan. 2026-yil I choragida esa 16 ta obyektida, shundan 13 tasi masofaviy shaklda audit tadbirlari o'tkazilib, 235 ta holatda 5 023,1 mln so'mlik xato va kamchiliklar profilaktika tadbirlari natijasida bartaraf etilgan [6], [7], [8]. Bu raqamlar ichki auditning faqat retrospektiv nazorat emas, balki profilaktika va risklarni boshqarishga xizmat qiluvchi mexanizmga aylanayotganini ko'rsatadi.

Material va metod. Tadqiqotning normativ bazasi bir necha manba guruhidan iborat. Birinchi guruhga O'zbekiston Respublikasida ichki audit milliy standartlari, davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi, ichki audit tadbirlarini o'tkazish bo'yicha amaliy qo'llanmalar kiradi. Lex.uz ma'lumotlariga ko'ra, ichki audit milliy standartlari davlat organlari va tashkilotlari ichki audit xizmatlari faoliyatining sifat ko'rsatkichlari hamda ichki audit tadbirlarini o'tkazish standartlarini belgilaydi [3].

Ikkinchi guruhga ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024) kiradi. IIA rasmiy manbalarida ushbu standartlar ichki auditning butunjahon professional amaliyotini yo'naltirishi, ichki audit funksiyasining sifatini baholash va oshirish uchun asos bo'lishi, besh domen va o'n besh tamoyildan tashkil topishi qayd etilgan [1], [2]. ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024)ning

muhim farqi shundaki, u standartlarni faqat audit ish tartibi sifatida emas, balki ichki auditning maqsadi, axloqiy xulq-atvori, mustaqil joylashuvi, resurslari, kommunikatsiyasi, sifatni oshirish tizimi va topshiriqlar natijalarini monitoring qilishni bir butun professional ekotizim sifatida talqin qiladi.

Uchinchi guruhga ichki audit amaliyoti bo'yicha taqdim etilgan hisobot va ma'lumotlar kiradi. Ushbu materiallarda ichki audit tadbirlari soni, masofaviy audit ulushi, risk-tahlil signallari, byudjet intizomiga oid kamchiliklar, maqsadli indikatorlar ijrosi, indikatorlar metodologiyasidagi ziddiyatlar va tavsiyalar monitoringi aks etgan [6], [7], [8]. Ayniqsa, maqsadli indikatorlarning formulalari, bazaviy ko'rsatkichlari va strategik hujjatlar bilan muvofiqligi masalasi ichki audit metodologiyasini takomillashtirish uchun muhim dalildir.

Natijalar. Maqolada kompleks ilmiy-tadqiqot metodologiyasi qo'llanildi. Birinchidan, normativ-huquqiy tahlil usuli orqali ichki audit milliy standartlarining tuzilishi, mazmuni va qo'llanish chegaralari o'rganildi.

Ikkinchidan, komparativ tahlil usuli asosida ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024) ning domenlari va tamoyillari milliy standartlar bandlari bilan qiyoslandi.

Uchinchidan, funksional tahlil orqali ichki auditning amaldagi roli nazorat, profilaktika, kafolat, maslahat va strategik risklarni baholash nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi.

To'rtinchidan, case-study yondashuvi asosida ichki audit ma'lumotlari tahlil qilindi.

Beshinchidan, konseptual modellashtirish orqali milliy standartlarni

takomillashtirishning taklif etilayotgan modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqotda "standart — metodologiya — amaliy natija" zanjiri asosiy tahliliy birlik sifatida tanlandi. Standart ichki audit xizmatiga umumiy talabni belgilaydi, metodologiya esa mazkur talabni qanday bajarishni ko'rsatadi, amaliy natija esa ichki audit xizmatining byudjet intizomi, risklarni kamaytirish, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga qo'shgan hissasi bilan baholanadi. Shu sababli maqolada taklif etilgan har bir o'zgarish faqat nazariy g'oya sifatida emas, balki aniq audit jarayoniga tatbiq etiladigan vosita sifatida izohlandi.

Metodologik yondashuvning muhim jihati shundaki, O'zbekiston sharoitida ichki auditni to'liq korporativ sektor modeli asosida emas, balki davlat sektori xususiyatlari — byudjet intizomi, maqsadli indikatorlar, davlat xaridlari, huquqiy muvofiqlik, raqamli davlat xizmatlari, normativ-huquqiy hujjatlarning izchilligi, masofaviy audit tizimlari va profilaktik nazorat vazifalari bilan uyg'un holda modernizatsiya qilish zarur. Shunday yondashuv milliy standartlarning amaliy kuchini yo'qotmasdan, ularni global professional tamoyillar bilan boyitish imkonini beradi.

O'zbekiston milliy standartlari va ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024) o'rtasidagi konseptual farqlar

Milliy standartlar va ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024) o'rtasidagi eng asosiy farq ichki auditning falsafasida namoyon bo'ladi. Milliy standartlarda ichki audit ko'proq davlat organlari va tashkilotlarida byudjet intizomiga rioya etilishi, moliyaviy boshqaruv, ichki nazorat tizimi va

risklarni boshqarish jarayonlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv davlat moliyasi uchun zarur va amaliy jihatdan muhimdir. Ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024) esa ichki auditni tashkilot qiymatini yaratish, himoya qilish va saqlash qobiliyatini kuchaytiruvchi mustaqil kafolat va maslahat funksiyasi sifatida ko'rsatadi [1], [4].

Ikkinchi farq boshqaruv modelida ko'rinadi. Milliy standartlarda ichki audit xizmati bevosita davlat organi yoki tashkiloti rahbariga bo'ysunishi va hisobdor bo'lishi belgilangan. Bu model davlat boshqaruvi tizimi uchun sodda va amaliy. Biroq ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024)da ichki audit funksiyasining mustaqilligi kengash yoki unga tenglashtirilgan boshqaruv organi tomonidan vakolat berilishi, mustaqil joylashtirilishi va nazorat qilinishi bilan mustahkamlanadi [1], [2]. Davlat sektorida klassik korporativ kengash har doim mavjud bo'lmasligi mumkin, shuning uchun O'zbekiston sharoitida "kengash" funksiyasini vazirlik huzuridagi audit qo'mitasi, kuzatuv kengashi, jamoatchilik kengashi yoki yuqori turuvchi organ tomonidan tasdiqlangan mustaqil nazorat mexanizmi bilan institutsional moslashtirish mumkin.

Uchinchi farq riskka asoslangan rejalashtirish chuqurligidir. Milliy standartlarda ichki audit yillik rejasini tuzish, audit tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish nazarda tutilgan. Ammo ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024) strategik rejalashtirish, audit olami, risklarni baholash, resurslarni boshqarish va ichki audit funksiyasining faoliyatini tashkilot strategiyasi bilan bog'lashni ancha keng talqin qiladi. Bu farq amaliyotda katta ahamiyatga ega: masalan,

yuqori qiymatdagi xarajatlar kam riskli bo'lishi, kichik ko'rinadigan jarayon esa manfaatlar to'qnashuvi yoki axborot sifati nuqtayi nazaridan yuqori riskli bo'lishi mumkin.

To'rtinchi farq sifatni ta'minlash tizimidadir. Milliy standartlarda ichki va tashqi baholash mavjud. Biroq ichki auditning xalqaro standartlari (GIAS 2024) sifatni ichki baholash, doimiy monitoring, tashqi mustaqil baholash, kamchiliklarni bartaraf etish rejalari va standartlarga muvofiqlikni ochiq kommunikatsiya qilishni kuchliroq tizim sifatida belgilaydi. Bu milliy standartlarda mavjud yo'nalishni yanada aniq indikatorlar, mustaqil baholovchi mezonlari, metodologik sifat tekshiruvlari va audit fayllari sifat nazorati bilan boyitishni talab qiladi.

Beshinchi farq tahliliy amallar va dalillar bilan bog'liq. Ichki auditning xalqaro standartlari (GIAS 2024) audit topshiriqlarini rejalashtirish, ishni bajarish, dalillarni yig'ish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va monitoringni alohida professional jarayon sifatida ko'rsatadi. Milliy standartlarda dalillar va audit tadbirlarini hujjatlashtirish mavjud bo'lsa-da, tahliliy amallar, ma'lumotlar tahlili, raqamli izlar, indikatorlar ishonchliligi, avtomatik risk signallarini tekshirish, ishchi hujjatlarda "mezon — holat — sabab — oqibat — tavsiya" modeli kabi usullarni alohida standart darajasida mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Munozara. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston davlat sektorida ichki audit

metodologiyasini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarda olib borilishi lozim. Ushbu yo'nalishlar bir-biridan ajralgan emas; ular ichki auditning butun hayot siklini — mandatdan tortib monitoringgacha — qamrab oladi.

I. Ichki audit maqsadini "qonuniylik nazorati" dan "jamoat qiymatini oshirish" modeliga o'tkazish

Amaldagi amaliyotda ichki audit ko'pincha xato va kamchiliklarni aniqlash, byudjet intizomini tiklash, ortiqcha yoki noto'g'ri sarflangan mablag'larni bartaraf etish bilan baholanadi. Bu zarur, ammo yetarli emas. Yangi konseptual modelda ichki audit jamoat qiymatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Jamoat qiymati deganda davlat organi faoliyatining qonuniy, samarali, tejamkor, natijador, shaffof va fuqarolar manfaatiga yo'naltirilgan bo'lishi tushuniladi.

Ichki auditning milliy va xalqaro standartlarining konseptual farqlari

Konseptual yo'nalish

Ichki audit maqsadi

Mustaqillik

Riskka asoslangan rejalashtirish

Sifatni ta'minlash

Dalillar va tahlil

Milliy standartlardagi mavjud yondashuv

Sifat ko'rsatkichlari va audit tadbirlarini o'tkazish tartibini belgilash

Tashkilot rahbariga bo'ysunish va boshqa bo'linmalardan mustaqillik

Yillik reja va audit tadbirlari rejalashtiriladi

Ichki va tashqi baholash nazarda tutilgan

Audit tadbirlari natijalari hujjatlashtiriladi

GIAS 2024dagi kengroq yondashuv

Tashkilot qiymatini yaratish, himoya qilish va saqlashga ko'maklashish

Kengash tomonidan vakolat berish, mustaqil joylashuv va nazorat

Strategik reja, audit olami, risk baholash, resurslar va ustuvorliklar uyg'unlashadi

Doimiy monitoring, ichki baholash, kamida davriy mustaqil tashqi baholash va sifatni oshirish dasturi

Dalillar yetarliligi, ishonchligi, tahliliy amallar va xulosalarni monitoring qilish talab qilinadi

Takomillashtirish xulosasi

Milliy standartga "jamoat qiymati" va "strategik natijadorlikka kafolat berish" tushunchalarini kiritish zarur.

Davlat sektorida audit qo'mitasi yoki unga tenglashtirilgan nazorat platformasini joriy etish maqsadga muvofiq

Risk reytingi, audit olami pasporti va resurslar matritsasi standartga kiritilishi lozim

QAIP, audit fayllari sifat nazorati va baholash natijalarini rahbariyatga ochiq taqdim etish tartibi kuchaytiriladi

Dalillar reyestri, tahliliy amallar protokoli va topilmalar matritsasi majburiy shakllarga aylantiriladi

1-rasm. Ichki auditning milliy va xalqaro standartlarining konseptual farqlari

Masalan, maqsadli indikatorlar bo'yicha ichki audit faqat belgilangan reja bajarilgan yoki bajarilmaganini qayd etmasdan, indikatorning to'g'ri qo'yilganligi, bazaviy ko'rsatkichi, strategik hujjatlar bilan muvofiqligi va natijaning real ijtimoiy-huquqiy ta'sirini

baholashi kerak. Agar indikator 400 foizdan ortiq bajarilgan bo'lsa, bu faqat yuqori natija emas, balki rejalashtirish metodologiyasi yetarli emasligini ham anglatishi mumkin. Demak, ichki auditning yangi vazifasi raqamni tasdiqlash emas, raqam ortidagi

boshqaruv sifati va natijadorlikni baholashdir.

II. Mustaqillikni institutsional kafolatlash va audit qo'mitasi modelini shakllantirish

Milliy standartlarda ichki audit xizmati rahbarga bo'ysunishi mustaqillik kafolati sifatida ko'rsatilgan. Biroq amaliyotda rahbarga bo'ysunish auditning tashkiliy mustaqilligini to'liq kafolatlamaydi, chunki audit obyektlari ayrim hollarda rahbariyat qarorlari, maqsadli indikatorlar yoki yuqori darajadagi boshqaruv jarayonlariga bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Ichki auditning xalqaro standartlari (GIAS 2024) mantig'iga ko'ra, ichki auditga vakolat beruvchi, uning rejasini ko'rib chiqadigan, resurslar yetarliligini baholaydigan va sifat natijalarini tinglaydigan boshqaruv organi bo'lishi zarur.

O'zbekiston davlat sektorida bunday organ sifatida vazirlik huzuridagi Audit qo'mitasi yoki Ichki audit faoliyatini muvofiqlashtirish komissiyasi joriy etilishi mumkin. Ushbu qo'mita ichki audit yillik rejasini ko'rib chiqadi, yuqori riskli yo'nalishlar bo'yicha auditorlik topshiriqlarini taklif qiladi, auditorlar mustaqilligiga aralashuvlar bo'yicha axborotni eshitadi va tavsiyalar bajarilishi monitoringini nazorat qiladi. Bu rahbarning boshqaruv javobgarligini

kamaytirmaydi, aksincha, ichki audit natijalarining institutsional himoyasini kuchaytiradi.

III. Riskka asoslangan rejalashtirishni chuqurlashtirish

Ichki audit yillik rejasini tuzishda obyektlarni faqat davriylik, moliyaviy hajm yoki rahbariyat topshirig'i asosida tanlash yetarli emas. Audit olami shakllantirilib, har bir jarayon, bo'linma, axborot tizimi, xarajat turi, davlat xizmati, loyiha va indikator risk mezonlari bo'yicha baholanishi kerak. Risk baholash kamida quyidagi mezonlarni qamrab olishi lozim: moliyaviy ahamiyat, qonunbuzilish ehtimoli, manfaatlar to'qnashuvi riski, axborot tizimlari integratsiyasi, fuqarolarga ta'sir, oldingi audit natijalari, tavsiyalar bajarilmasligi, strategik indikatorlar bilan bog'liqlik va raqamli ma'lumotlar sifati.

Davlat ichki auditi amaliyotida masofaviy audit signallari muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, 2025-yilda 591 ta risk-tahlil, 2026-yil I choragida 175 ta risk-tahlil bo'yicha masofaviy audit tadbirlari amalga oshirilgan [7], [8]. Bu holat riskka asoslangan rejalashtirishda tashqi risk signallari, avtomatlashtirilgan tahlil natijalari va ichki audit tajribasini yagona reyting tizimiga birlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval

Riskka asoslangan rejalashtirish amaliyoti

Risk mezon	Baholash savoli	Amaliy misol	Audit rejasiga ta'siri
Moliyaviy ahamiyat	Jarayon yoki obyekt katta miqdordagi byudjet mablag'lariga ta'sir qiladimi?	Kassa xarajatlari, investitsiya loyihalari, xaridlar.	Yuqori moliyaviy hajm auditorlik resurslarini ustuvor ajratishni talab qiladi.

Muvofiqlik riski	Jarayon normativ-huquqiy hujjatlar bilan to'liq mosmi?	PF va PQ ko'rsatkichlari o'rtasidagi indikator ziddiyati.	Normativ nomuvofiqlik aniqlansa, reja darhol yangilanishi kerak.
Axborot sifati	Indikator yoki hisobot raqamlari ishonchli manbaga asoslanganmi?	Bazaviy son aniq ko'rsatilmagan indikatorlar.	Ma'lumotlar auditi alohida topshiriq sifatida kiritiladi.
Manfaatlar to'qnashuvi	Xaridlar yoki shartnomalarda bog'liq shaxslar riski bormi?	UZEX shartnomalari, mansabdor shaxsga bog'liq yetkazib beruvchilar.	Forenzik va komplyens audit elementi kuchaytiriladi.
Tavsiyalar bajarilishi	Oldingi audit tavsiyalari bajarilmaganmi?	Takrorlanuvchi ish haqi, xarid yoki hisob xatolari.	Monitoring topshirig'i yillik rejaning majburiy qismiga aylanadi.

IV. Tahliliy amallar va ma'lumotlar auditi metodologiyasini alohida standartga aylantirish

Davlat sektorida ichki audit tobora ko'proq ma'lumotlar bilan ishlaydi. Audit dalillari faqat qog'oz hujjatlar, shartnomalar yoki to'lov topshiriqnomalari bilan cheklanmaydi; ular axborot tizimlari loglari, elektron arizalar, identifikatsiya yozuvlari, integratsiya javoblari, ma'lumotlar bazalaridagi o'zgarishlar, risk-tahlil signallari va maqsadli indikatorlar hisob-kitoblaridan ham iborat bo'ladi. Shu sababli ichki audit standartlarida "tahliliy amallar" alohida metodologik blok sifatida belgilanishi zarur.

Tahliliy amallar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: trend tahlili, reja-fakt tahlili, bazaviy yil bilan qiyoslash, g'ayrioddiy o'zgarishlarni aniqlash, ekstremal qiymatlar tahlili, korrelyatsiya, tanlama testlar, tizimlararo moslikni

tekshirish, indikator formulalarini qayta hisoblash, ma'lumot manbalarini triangulyatsiya qilish va avtomatik risk signallarini verifikatsiya qilish. Masalan, davlat xizmatlari soni reja ko'rsatkichidan bir necha baravar oshsa, auditor bu holatni faqat "ijobiy bajarilish" deb emas, balki reja noto'g'ri belgilanganligi, hisoblash metodologiyasi o'zgarganligi yoki turli tizimlardan kelgan ma'lumotlar qo'shib yuborilganligi ehtimoli nuqtayi nazaridan tekshirishi kerak.

V. Auditorlik dalillarining yetarliligi va ishonchliligini standartlashtirish

Ichki audit xulosasi dalillar bilan mustahkamlanmasa, u boshqaruv qarorlariga asos bo'la olmaydi. Shu sababli milliy standartlarda dalillarni baholashning aniq mezonlarini kuchaytirish zarur. Dalil yetarli bo'lishi, ishonchli manbadan olingan bo'lishi,

tekshirilayotgan masalaga bevosita aloqador bo'lishi, obyektiv bo'lishi va qayta tekshirish imkonini berishi kerak. Elektron dalillar uchun esa manba tizimi, sana-vaqt belgisi, foydalanuvchi identifikatori, integratsiya logi va ma'lumot o'zgarmaganligini tasdiqlash talablari belgilanishi lozim.

Amaliy misol sifatida masofaviy auditda Hisob palatasi AATdan kelgan risk signallari ko'rilsa, auditor signalning o'zini yakuniy dalil deb qabul qilmasligi kerak. Signal faqat audit gipotezasidir. Auditor uni shartnoma, to'lov, kadrlar ma'lumoti, UzASBO, YAMMT yoki boshqa axborot tizimlari ma'lumotlari bilan solishtirib, risk mavjud yoki mavjud emasligini isbotlashi kerak. Shu orqali audit topilmasi professional hukmga emas, dalillar zanjiriga asoslanadi.

VI. Audit topilmasi modelini "mezon — holat — sabab — oqibat — tavsiya" asosida majburiylashtirish

Ichki audit hisobotlarida topilmalar ko'pincha xato yoki kamchilik sifatida qayd etiladi. Biroq samarali audit topilmasi besh elementdan iborat bo'lishi kerak: mezon, holat, sabab, oqibat va tavsiya. Mezon — qanday norma, standart, reja yoki tartib buzilganini ko'rsatadi. Holat — amalda nima sodir bo'lganini ifodalaydi. Sabab — kamchilik nega yuzaga kelganini ochadi. Oqibat — moliyaviy, huquqiy, operatsion yoki reputatsion ta'sirni ko'rsatadi. Tavsiya — sababni bartaraf etadigan aniq boshqaruv chorasi bo'lishi kerak.

Masalan, indikator bo'yicha yillik reja 6 mln xizmat, haqiqatda 27,6 mln xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, topilma quyidagicha rasmiylashtirilishi mumkin: mezon — indikatorlar real,

o'lchanadigan va strategik maqsadga mos bo'lishi kerak; holat — fakt reja ko'rsatkichidan 4,6 baravar yuqori; sabab — rejalashtirishda oldingi davr dinamikasi va xizmatlar raqamlashtirilishi inobatga olinmagan; oqibat — indikator boshqaruv natijadorligini obyektiv aks ettirmaydi; tavsiya — keyingi yil indikatorini bazaviy holat, uch yillik trend va raqamli transformatsiya sur'atidan kelib chiqib qayta tasdiqlash.

VII. Sifatni ta'minlash va yaxshilash dasturini joriy etish

Sifatni ta'minlash ichki auditning o'ziga nisbatan qo'llanadigan audit madaniyatidir. Auditor boshqalardan dalil, tartib va samaradorlik talab qilar ekan, o'z faoliyatini ham xuddi shunday mezonlar asosida baholashi kerak. Milliy standartlarda ichki va tashqi baholash mavjud bo'lsa-da, QAIP — Quality Assurance and Improvement Program — sifatni ta'minlash va yaxshilash dasturini aniq metodologik shaklda joriy etish maqsadga muvofiq.

QAIP doirasida har bir audit topshirig'i bo'yicha fayl to'liqligi, reja-dastur mosligi, dalillar yetarliligi, tavsiyalar aniqligi, audit xulosalarining dalillar bilan bog'liqligi, manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari, rahbariyat bilan kommunikatsiya va tavsiyalar monitoringi tekshiriladi. Davriy ichki baholash esa auditorlarning ish uslubi, malakasi, tahliliy amallardan foydalanishi va hisobot sifati bo'yicha xulosalar beradi. Tashqi baholash natijalari faqat muvofiqlikni tekshirish emas, balki ichki audit funksiyasini rivojlantirish xaritasiga aylanishi lozim.

Metodologik takomillashtirish

bo'yicha taklif etilayotgan model

O'zbekiston sharoitida ichki audit standartlarini xalqaro standartlar(GIAS 2024)ga mexanik ko'chirish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki milliy davlat sektori o'ziga xos: byudjet mablag'lari, normativ-huquqiy hujjatlar ierarxiyasi, davlat xizmatlari, maqsadli indikatorlar, davlat xaridlari va masofaviy audit tizimlari muhim o'rin tutadi. Shuning uchun taklif etilayotgan model "global tamoyil — milliy huquqiy moslashuv — amaliy metodika — audit dalili — boshqaruv natijasi" zanjiriga asoslanishi kerak.

Taklif etilayotgan model besh blokdan iborat: birinchi blok — ichki auditning maqsadi va jamoat qiymati; ikkinchi blok — axloq, professionalizm va mustaqillik; uchinchi blok — boshqaruv va institutsional mandat; to'rtinchi blok — ichki audit funksiyasini boshqarish, strategik rejalashtirish va resurslar; beshinchi blok — audit topshiriqlarini bajarish, dalillar, tahliliy amallar, hisobot va monitoring. Mazkur model xalqaro ichki audit standartlari(GIAS 2024) tuzilmasi bilan uyg'un, ammo davlat sektorining byudjet intizomi va huquqiy muvofiqlik talablarini saqlab qoladi.

2-jadval

Metodologik takomillashtirish bo'yicha taklif etilayotgan model

Taklif etilayotgan blok	Mazmuni	Milliy standartga kiritilishi lozim bo'lgan asosiy qoida	Kutiladigan natija
1-blok. Maqsad va jamoat qiymati	Ichki auditning vazifasi xato topishdan kengroq: jamoat qiymatini yaratish, himoya qilish va saqlash.	Ichki audit davlat organining strategik maqsadlariga erishish, risklarni kamaytirish va resurslardan natijador foydalanishga mustaqil kafolat beradi.	Audit hisobotlari boshqaruv qarorlariga real ta'sir ko'rsatadi.
2-blok. Axloq va professionalizm	Halollik, holislik, professional jasurlik, malaka, maxfiylik va kasbiy skeptitsizm.	Auditor noqulay xulosalarni ham dalillar asosida ochiq bildirishga majbur ekani mustahkamlanadi.	Audit sifati va auditorlik mustaqilligiga ishonch oshadi.
3-blok. Boshqaruv va mandat	Audit qo'mitasi, mustaqil reja, resurslar yetarliligi, aralashuvlardan himoya.	Ichki audit xizmati rahbariga tashkiliy aralashuvlar bo'yicha alohida axborot berish va himoya mexanizmi beriladi.	Audit rejalari yuqori riskli yo'nalishlarga qaratiladi.
4-blok. Funksiyani	Strategik audit rejasi, audit olami, risk	Har yili audit olami yangilanadi va risk	Resurslar ustuvor risklarga

boshqarish	reytingi, resurslar, kommunikatsiya va sifat.	reytingi asosida yillik reja shakllantiriladi.	yo'naltiriladi.
5-blok. Audit xizmatlarini bajarish	Topshiriqni rejalashtirish, dalillarni yig'ish, tahliliy amallar, hisobot, monitoring.	Har bir topilma mezon-holat-sabab-oqibat-tavsiya modeli asosida rasmiylashtiriladi.	Tavsiyalar aniq, o'lchanadigan va bajarilishi monitoring qilinadigan bo'ladi.

Konseptual takomillashtirish bo'yicha ilmiy mulohazalar

Ichki audit standartlarini takomillashtirish faqat bandlar sonini ko'paytirish yoki xalqaro standartlar matnini milliy hujjatga ko'chirish emas. Bu, avvalo, ichki auditning davlat boshqaruvidagi rolini qayta konseptuallashtirish jarayonidir. Quyidagi ilmiy mulohazalar mazkur jarayonning asosiy nazariy tayanchlari sifatida taklif etiladi.

a) Ichki audit — boshqaruvning "orqadan tekshiruvchi" emas, "oldindan ogohlantiruvchi" instituti

An'anaviy nazoratda xato sodir bo'lganidan keyin uni aniqlash ustuvor bo'ladi. Zamonaviy ichki audit esa xato sodir bo'lish ehtimolini oldindan pasaytirishga xizmat qiladi. Bu profilaktik audit, risk signallari, ichki nazorat dizaynini baholash, jarayonlarni soddalashtirish va tavsiyalar monitoringi orqali amalga oshadi. Ichki audit amaliyotida 2026-yil I choragida aniqlangan 5 023,1 mln so'mlik xato va kamchiliklarning profilaktika tadbirlari natijasida bartaraf etilishi ichki auditning oldini oluvchi funksiyasini ko'rsatadi [8].

Shu sababli milliy standartlarda "profilaktik audit" tushunchasi aniq kiritilishi kerak. Profilaktik audit — bu aniqlangan xato uchun javobgarlik

chorasi ko'rishdan oldin tizimdagi nazorat zaifligini bartaraf etishga qaratilgan auditorlik yondashuvi. Uning natijasi mablag'ni qaytarish bilan birga, xato takrorlanishining oldini oluvchi nazorat mexanizmini yaratishdir.

b) Ichki audit — ma'lumotlar sifati va indikatorlar ishonchligi kafolatchisi

Raqamli davlat boshqaruvi sharoitida qarorlar tobora ko'proq indikatorlar va axborot tizimlari ma'lumotlariga asoslanadi. Agar indikator noto'g'ri tuzilgan, formula noaniq, bazaviy son shubhali yoki ma'lumot manbalari aralash bo'lsa, boshqaruv qarori ham noto'g'ri bo'lishi mumkin. Shu sababli ichki audit raqamlarning "hisoblanganini" emas, ularning "boshqaruvga yaroqliligini" baholashi kerak.

Maqsadli indikatorlar auditi davlat sektorida amaliy audit elementlarini kuchaytiradi. Auditor "reja bajarildi" degan xulosa bilan cheklanmay, quyidagi savollarga javob beradi: indikator fuqarolar uchun real natijani aks ettiryaptimi; ko'rsatkich strategik hujjat bilan mosmi; reja ambitsiyalimi; bajarilish natijasi resurslar sarfi bilan mutanosibmi; indikator sun'iy oshirilmaganmi; kelgusi yil rejalashtirish uchun qanday xulosa chiqarish kerak? Bunday yondashuv ichki auditni hisob-

kitob tekshiruvchisidan strategik tahlilchi institutiga aylantiradi.

c) Ichki auditda professional jasurlik va etik madaniyat

Ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024)da halollik va professional jasurlik alohida standart sifatida yoritiladi. Bu juda muhim, chunki ichki auditor ko'pincha noqulay xulosalar, yuqori riskli topilmalar, rahbariyat uchun yoqimsiz bo'lgan indikator muammolari yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ko'rsatishi kerak bo'ladi. Agar standart auditorni professional jasurlikka chaqirmasa, amaliyotda audit xulosasi yumshatilishi, muhim faktlar umumiy so'zlar bilan berilishi yoki tavsiyalar real sababga emas, tashqi alomatga qaratilishi mumkin.

O'zbekiston milliy standartlarida halollik, holislik va qonuniylik mavjud, ammo professional jasurlik tushunchasini alohida kiritish ichki audit madaniyatini kuchaytiradi. Professional jasurlik deganda auditorning dalillar asosida noqulay haqiqatni ham hurmatli, aniq va asosli tarzda ayta olishi tushuniladi. Masalan, indikator strategik hujjatga zid qo'yilgan bo'lsa, auditor faqat "qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi" demasdan, bu ziddiyat boshqaruv natijasini noto'g'ri baholash xavfini tug'dirishini aniq ko'rsatishi kerak.

d) Ichki auditda tavsiyalarni boshqaruv harakatlariga aylantirish

Ichki audit qiymati topilma soni bilan emas, tavsiyalar natijasida boshqaruvda yuz bergan o'zgarish bilan o'lchanadi. Shu sababli tavsiyalar monitoringi ichki auditning yakuniy bosqichi emas, balki auditning markaziy maqsadlaridan biridir. Tavsiya SMART tamoyiliga mos bo'lishi kerak: aniq,

o'lchanadigan, bajarilishi mumkin, relevant va muddatli. Har bir tavsiyaga mas'ul ijrochi, muddat, kutiladigan natija va dalil shakli biriktiriladi.

Amaliyotda quyidagi uch darajali monitoring modeli taklif etiladi: birinchi daraja — tavsiya qabul qilinganini tasdiqlash; ikkinchi daraja — tavsiya bo'yicha chora-tadbir bajarilganini tekshirish; uchinchi daraja — bajarilgan chora riskni kamaytirganini baholash. Masalan, xarid jarayonida manfaatlar to'qnashuvi riskini kamaytirish bo'yicha tavsiya faqat mas'ullarga tushuntirish berish bilan yakunlanmasligi kerak; elektron deklaratsiya, avtomatik bog'liqlik tekshiruvi va xarid komissiyasi qarorlarini hujjatlashtirish mexanizmi joriy etilganidan keyin risk real kamaygan deb baholanishi mumkin.

Yangi standart loyihasi uchun asosiy modda va normalar bo'yicha takliflar

Quyida milliy ichki audit standartlarini takomillashtirish uchun kiritilishi mumkin bo'lgan asosiy konseptual normalar loyihaviy shaklda bayon etiladi. Ular to'liq normativ matn emas, balki standart loyahasini ishlab chiqishda foydalaniladigan ilmiy-amaliy asos sifatida ko'rilishi kerak.

1-modda. Ichki auditning maqsadi. Ichki audit davlat organi va tashkilotining strategik maqsadlariga erishish, jamoat qiymatini yaratish, himoya qilish va saqlash, risklarni boshqarish, ichki nazorat va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish uchun mustaqil va holis kafolat, maslahat va tahliliy tavsiyalar beruvchi professional faoliyat hisoblanadi.

2-modda. Professional jasurlik. Ichki auditorlar o'z xulosalarida dalillarga asoslangan, aniq, haqqoniy va

hurmatli bo'lishi, muhim faktlarni yashirmasligi, noqulay yoki qarama-qarshi natijalarni ham rahbariyat va vakolatli boshqaruv organlariga yetkazishi shart.

3-modda. Audit qo'mitasi yoki tenglashtirilgan nazorat mexanizmi. Davlat organi va tashkilotida ichki audit xizmati mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, yillik audit rejasini ko'rib chiqish, resurslar yetarliligini baholash, sifat natijalarini eshitish va tavsiyalar monitoringini nazorat qilish uchun audit qo'mitasi yoki unga tenglashtirilgan mexanizm tashkil etilishi mumkin.

4-modda. Audit olami va riskka asoslangan rejalashtirish. Ichki audit xizmati har yili audit olamini shakllantiradi, jarayonlar, bo'linmalar, axborot tizimlari, loyihalar, xarajatlar va indikatorlarni risk mezonlari bo'yicha baholaydi hamda yillik reja yuqori riskli yo'nalishlarga ustuvorlik berilgan holda tuziladi.

5-modda. Tahliliy amallar. Ichki audit tadbirlarida trend, reja-fakt, bazaviy yil, tizimlararo moslik, indikator formulasi, g'ayrioddiy tafovutlar, tanlama va raqamli ma'lumotlar tahlili qo'llanadi. Tahliliy amallar natijalari ishchi hujjatlarda alohida qayd etiladi.

6-modda. Dalillar. Auditorlik dalillari yetarli, ishonchli, aloqador, obyektiv va qayta tekshiriladigan bo'lishi kerak. Elektron dalillar bo'yicha manba tizimi, sana-vaqt belgisi, foydalanuvchi identifikatori, integratsiya logi va ma'lumotlar yaxlitligini tasdiqlovchi belgilar saqlanishi shart.

7-modda. Audit topilmasi. Har bir audit topilmasi mezon, holat, sabab, oqibat va tavsiya elementlari asosida rasmiylashtiriladi. Tavsiya sababni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi va

bajarilish muddati, mas'ul ijrochi hamda kutiladigan natijani o'z ichiga olishi kerak.

8-modda. Sifatni ta'minlash va yaxshilash dasturi. Ichki audit xizmati faoliyati bo'yicha doimiy monitoring, davriy ichki baholash va mustaqil tashqi baholash natijalari asosida sifatni ta'minlash va yaxshilash dasturi yuritiladi. Dastur ichki audit metodologiyasi, resurslari, xodimlar malakasi, audit fayllari sifati va tavsiyalar natijadorligini qamrab oladi.

9-modda. Maqsadli indikatorlar auditi. Ichki audit xizmati maqsadli indikatorlar bo'yicha reja-fakt bajarilishini, indikator formulasi va bazaviy ma'lumotlari ishonchligini, strategik hujjatlar bilan muvofiqligini, ma'lumot manbalari yaxlitligini va indikatorning boshqaruvga yaroqliligini baholaydi.

10-modda. Masofaviy audit. Masofaviy audit avtomatlashtirilgan risk signallari, axborot tizimlari ma'lumotlari va elektron dalillar asosida o'tkazilishi mumkin. Risk signali yakuniy dalil emas, audit gipotezasi hisoblanadi va boshqa manbalar bilan tasdiqlanishi zarur.

Taklif etilayotgan o'zgarishlarning kutiladigan natijalari

Taklif etilayotgan metodologik va konseptual o'zgarishlar bir necha darajada natija beradi. Birinchi darajada, ichki auditning normativ aniqligi oshadi. Auditor nimani, qanday mezon asosida, qaysi dalil bilan va qanday tahliliy usul orqali baholashi aniq bo'ladi. Ikkinchi darajada, audit rejalari ko'proq riskka asoslanadi va resurslar eng muhim yo'nalishlarga yo'naltiriladi. Uchinchi darajada, hisobotlar boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlaydigan analitik hujjatga aylanadi. To'rtinchi

darajada, tavsiyalar bajarilishi formal nazoratdan risk kamayishini tasdiqlash bosqichiga o'tadi.

Maqsadli indikatorlar bo'yicha kutiladigan asosiy natija — rejalashtirish sifati oshadi. Rejalar oldingi yil natijalari, bazaviy ko'rsatkichlar, strategik hujjatlar va real ijro imkoniyatlari asosida belgilanadi. Natijada indikatorlar "oson bajariladigan" yoki "sun'iy yuqori ko'rsatiladigan" raqamlar emas, boshqaruv samaradorligini o'lchaydigan vositaga aylanadi.

Masofaviy audit bo'yicha kutiladigan natija — risk signallarini ko'rish tezligi va aniqlik darajasi oshadi.

Bunda auditorlar avtomatik signalga qaram bo'lib qolmaydi, balki uni professional dalillar zanjiri orqali tasdiqlaydi. Natijada noto'g'ri ijobiy signallar kamayadi, haqiqiy risklar esa tezroq bartaraf etiladi.

Sifatni ta'minlash bo'yicha kutiladigan natija — ichki auditning o'ziga nisbatan ham javobgarlik va ochiqlik oshadi. Audit fayllari, dalillar, tavsiyalar va monitoring natijalari muntazam baholanadi. Bu auditorlar malakasini oshirish, metodologik kamchiliklarni aniqlash va ichki audit xizmatining institutsional nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3-jadval

Taklif etilayotgan o'zgarishlardan kutilayotgan natijalar

O'zgarish yo'nalishi	Oldingi holatdagi muammo	Taklif etilgan yechim	Kutiladigan amaliy samara
Maqsad konsepsiyasi	Ichki audit ko'proq xato va kamchiliklarni aniqlash bilan bog'lanadi.	Jamoat qiymati, kafolat, maslahat va prognoz funksiyasini kiritish.	Audit boshqaruv qarorlariga strategik ta'sir ko'rsatadi.
Riskka asoslangan reja	Audit obyektlari ayrim hollarda davriylik yoki topshiriq asosida tanlanadi.	Audit olami va risk reytingi asosida reja tuzish.	Yuqori riskli jarayonlar birinchi navbatda qamrab olinadi.
Tahliliy amallar	Reja-fakt va hujjat tekshiruvu ustun bo'lishi mumkin.	Trend, tizimlararo solishtirish, indikator formulasi va raqamli tahlillar.	Indikatorlar va ma'lumotlar sifati chuqur tekshiriladi.
Dalillar	Elektron dalillar bo'yicha yagona mezonlar yetarli darajada rivojlanmagan.	Dalillar yetarliligi, ishonchliligi va audit izi talablarini belgilash.	Audit xulosalarining isbot kuchi oshadi.
Tavsiyalar monitoringi	Tavsiya bajarilganini formal tasdiqlash bilan cheklanish ehtimoli bor.	Risk kamayganini baholashgacha bo'lgan uch bosqichli monitoring.	Takroriy kamchiliklar kamayadi.
Sifatni ta'minlash	Baholash mavjud, ammo QAIP ko'rinishida tizimlashmagan.	Doimiy monitoring, davriy baholash, tashqi baholash va yaxshilash rejasi.	Ichki audit funksiyasining professional sifati barqaror oshadi.

Muhokama: davlat sektorida qo'llashdagi ehtiyotkorliklar Ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024) talablarini milliy tizimga moslashtirishda bir nechta ehtiyotkorliklarga amal qilish kerak.

Birinchidan, xalqaro standartdagi "board" tushunchasini davlat sektoriga bevosita korporativ kengash sifatida ko'chirish noto'g'ri bo'lishi mumkin. Uni audit qo'mitasi, yuqori turuvchi organ, kuzatuv yoki muvofiqlashtiruvchi kengash orqali moslashtirish zarur.

Ikkinchidan, ichki auditning maslahat funksiyasi mustaqillikka zarar yetkazmasligi kerak. Auditor jarayonni ishlab berishi mumkin, ammo keyinchalik o'zi ishlab chiqqan jarayon bo'yicha kafolat auditi o'tkazsa, holislikka ta'sir yuzaga keladi. Shu bois maslahat va kafolat xizmatlari chegarasi aniq belgilanishi kerak.

Uchinchidan, riskka asoslangan rejalashtirish subyektiv ball berish vositasiga aylanib qolmasligi lozim. Har bir risk bahosi dalil bilan asoslanishi va rahbariyat bilan muhokama qilinishi kerak.

To'rtinchidan, masofaviy audit inson professional hukmini to'liq almashtirmasligi kerak. Avtomatlashtirilgan risk signali auditor uchun boshlang'ich nuqta bo'lib, yakuniy xulosa dalillar tahliliga asoslanadi.

Beshinchidan, indikatorlar auditi siyosiy yoki ma'muriy reja bahosiga aylanib qolmasligi kerak; u metodologik, huquqiy va ma'lumotlar ishonchliligi nuqtayi nazaridan professional baholash sifatida olib borilishi lozim.

Davlat sektorida ichki audit standartlarini takomillashtirishning muvaffaqiyati faqat normativ hujjat

qabul qilinishiga bog'liq emas. Buning uchun auditorlar malakasini oshirish, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, namunaviy ishchi hujjatlar yaratish, raqamli audit vositalarini rivojlantirish, rahbariyatning ichki auditga munosabatini o'zgartirish va sifatni mustaqil baholash madaniyatini shakllantirish talab etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ichki audit milliy standartlari davlat sektorida ichki audit xizmatlarini tashkil etish, ularning sifat ko'rsatkichlarini belgilash va audit tadbirlarini o'tkazish uchun zarur huquqiy asosni yaratgan. Biroq Ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024) bilan qiyosiy tahlil milliy standartlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Eng muhim yo'nalishlar — ichki audit maqsadini jamoat qiymati bilan bog'lash, professional jasurlikni mustahkamlash, audit qo'mitasi yoki tenglashtirilgan boshqaruv mexanizmini joriy etish, riskka asoslangan rejalashtirishni standartlashtirish, tahliliy amallar va dalillar metodologiyasini kuchaytirish, maqsadli indikatorlar auditini alohida yo'nalish sifatida shakllantirish, masofaviy auditni raqamli dalillar bilan bog'lash va sifatni ta'minlash dasturini joriy etishdan iborat.

2024–2026-yillardagi audit natijalari, risk-tahlil signallari, kamchiliklarni bartaraf etish ko'rsatkichlari va maqsadli indikatorlar auditi shuni tasdiqlaydiki, ichki audit davlat boshqaruvida strategik qarorlarni yaxshilashga xizmat qiluvchi kuchli institutga aylanishi mumkin. Buning uchun audit natijalari faqat kamchiliklar summasi bilan emas, balki risklarning kamayishi, indikatorlar sifatining

yaxshilanishi, nazorat muhitining mustahkamlanishi va boshqaruv samaradorligining oshishi bilan o'lanishi kerak.

Ilmiy-amaliy taklif sifatida milliy ichki audit standartlarini besh blokli konseptual model asosida yangilash maqsadga muvofiq: 1) ichki auditning maqsadi va jamoat qiymati; 2) axloq, professionalizm va mustaqillik; 3) boshqaruv va mandat; 4) ichki audit funksiyasini boshqarish va strategik rejalashtirish; 5) audit topshiriqlarini bajarish, dalillar, hisobot va monitoring. Mazkur model milliy huquqiy muhitni

saqlagan holda Ichki auditning xalqaro standartlari(GIAS 2024)ning ilg'or tamoyillarini davlat sektoriga moslashtiradi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda alohida metodik qo'llanmalar — riskka asoslangan rejalashtirish metodikasi, tahliliy amallar qo'llanmasi, elektron dalillar reyestri, maqsadli indikatorlar auditi metodologiyasi, audit topilmasi va tavsiyalar monitoringi shakllari ishlab chiqilishi zarur. Shundagina ichki audit standarti huquqiy talablar majmuasidan amaliy boshqaruv sifatini oshiruvchi professional metodologiyaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 avgustdagi 416-son "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 24-oktyabrda 3394-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Ichki audit milliy standartlari»;
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 27- dekabrda 3406-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi";
4. Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizom. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-son qarori. Le. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. 2024.
5. The Institute of Internal Auditors. IPPF: Global Internal Audit Standards, Topical Requirements and Global Guidance. Rasmiy ma'lumotlar sahifasi.lex.uz.
- 6.AICPA. (2018). Code of professional conduct. <https://www.aicpa.org/research/standards/codeofconduct.html>
7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi;
8. www.theiia.org – Xalqaro ichki auditorlar instituti rasmiy sayti